UDK: 316.6.159.9 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a197**

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA INSON SALOHIYATINI NAMOYON BO‘LISH OMILLARI

ФАКТОРЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

FACTORS OF MANIFESTATION OF HUMAN POTENTIAL IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Xurshid Naqibillaevich Xolmirzayev[1]

[1]Xurshid Naqibillaevich Xolmirzayev – Andijon davlat universiteti falsafa kafedrasi katta o‘qituvchisi f.f.b.f.d. (PhD),

Annotatsiya

Ushbu maqolada inson salohiyati realizatsiyasining amalga oshish jarayonlari, inson tabiatida yashiringan salohiyatini yuzaga chiqarish imkoniyatlari, yo‘llari va o‘ziga xos jihatlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganishga harakat qilingan. Xususan mavzu doirasida ijtimoiy mobillik tushunchasining mazmun mohiyati ilmiy-nazariy tomondan yoritib berilgan. Shuningdek ijtimoiy mobillikning xususiyatlari falsafiy nuqtai nazardan tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье сделана попытка социально-философски исследовать процессы реализации человеческого потенциала, возможности, пути и специфические аспекты проявления скрытого в природе человека потенциала. В частности, в рамках темы осветлена содержательная сущность понятия социальной мобильности с научно-теоретической стороны. Также анализируются особенности социальной мобильности с философской точки зрения.

Abstract

This article attempts to explore socio-philosophically the processes of realization of the realism of human potential, the possibilities, ways and specifics of bringing to the surface the potential hidden in human nature. In particular, within the framework of the topic, the essence of the concept of social mobility is covered from the scientific-theoretical side. Also the features of social mobility are analyzed from a philosophical point of view.

Kalit so‘zlar: *inson salohiyati, ijtimoiy muhit, megamuhit, makromuhit, mikromuhit, ijtimoiy mobillik.*

Ключевые слова: *человеческий потенциал, социальная среда, мегасреда, макросреда, микросреда, социальная мобильность.*

Key words: *human potential, social environment, megamuhit, macroenvironment, microenvironment, social mobility.*

KIRISH

Ma’lumki, jamiyatning oddiydan murakkabga tomon evolyutsion taraqqiyotida ob’yektiv omillar bilan bir qatorda sub’yektiv omil ham asosiy rol o‘ynaydi. Insonning - sub’yektiv omilning ijtimoiy mohiyati, jamiyatning barcha yo‘nalishlarida amalga oshirayotgan faoliyati, egallab turgan va namoyon etayotgan ijtimoiy va hayotiy pozitsiyasi, jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar va islohotlarga munosabati va ularda ishtiroki, jamiyatning muntazam o‘sib borayotgan ehtiyojlarini, strategik taraqqiyotini o‘z ijtimoiy ongi bilan aks ettirishi bilan birga o‘zining va yashayotgan jamiyatining kelajak orientatsiyalarini tushunishi kabi xususiyatlari u mansub bo‘lgan jamiyat taraqqiyotining sur'atlariga, albatta, ta’sir etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan jamiyat taraqqiyoti o‘zining ob’yektiv qonuniyatlariga ega bo‘lgan ijtimoiy voqelik hisoblanadi. Mazkur voqelikning mavjud bo‘lishi, uzluksizligi ijtimoiy tarixiy taraqqiyot sub’yektlari hisoblangan urug‘, qabila, elat, millat, turli etnik qatlamlarning o‘tmish, hozirgi zamon va kelajakdagi amalga oshiriladigan faoliyatiga qonuniy ravishda bog‘liq. Bunday faoliyatning markazida esa ma’lumki, inson va uning faoliyati turadi.

Inson salohiyatini realizatsiya qilish, bir vaqtning o‘zida uning huquq va burchlarini hamda erkinliklarini realizatsiya qilishdir. Ayrim olimlarning fikriga ko‘ra inson salohiyatini realizatsiya qilish darajasi bevosita jamiyatda inson erkinliklari tamoyillariga, qonun va demokratiyaga qanchalik amal qilishini anglatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Innavatsiyalarning kirib kelishi, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim kabi sohalarning tobora globallashib borishi natijasida ijtimoiy hayot tobora murakkab xususiyat kasb etib bormoqda.

Iqtisodiy sohada raqobatning va yangicha talablarning ortib borishi, innovatsiyalarning kirib kelishi inson salohiyati hamda faoliyatiga yangicha vazifalarni yuklamoqda. Jamiyatimiz, davlatimiz oldida mavjud milliy salohiyatni realizatsiya qilish va yanada yuksaltirish borasidagi muammolarning o‘z vaqtida hal etilishi inson salohiyatini yuksaltirish bilan birga uning asosida amalga oshiriladigan faoliyat samaradorligini ham ta’minlashga qaratilishi zarur.

Inson salohiyatining rivoji sharoitlar va imkoniyatlarning mavjudligiga bevosita bog‘liq. Mamlakatimizda insonning yashiringan salohiyatini yuzaga chiqarish uchun maksimal darajada sharoitlar va imkoniyatlar yaratish zarur, chunki bunday sharoitda sub’yektlarning kreativlik xususiyatlari hamda innovatsiyalar asosida yondashuvlari yuzaga chiqadi.

An’anaviy, konservativ xususiyatga ega bo‘lgan cheklangan jamiyatlarda inson salohiyatini taraqqiy ettirish ancha mushkul. Ular ijtimoiy hayotida modernizatsiyani amalga oshirayotgan jamiyatlarda islohotlar innovasiyalarni amalga oshirish hisobiga inson salohiyatini yuksaltirish uchun ulkan imkoniyatlar yuzaga keladi. Bunday imkoniyatlar natijasida millat va jamiyat rivojlanib borishining sur'atlari ortadi. Bu nuqtai nazardan Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator tarixiy hujjatlar inson salohiyati va uning jamiyat taraqqiyoti rolini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev yangi O‘zbekistonni barpo etish xalqimizning milliy manfaatlarini ifoda etuvchi tarixiy asoslarga ega bo‘lgan ob’yektiv zaruriyat ekanligini uqtirib, bu yo‘lda jamiyat a’zolarining salohiyati muhim ekanligiga e’tibor qaratadi: “Biz bu yo‘lda islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan jamiyatimiz a’zolarining bor bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlari, butun azmu shijoatimizni ishga solishimiz zarur. Shundagina yangi O‘zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi” [1.4].

Inson o‘zi yashayotgan ijtimoiy davr, ijtimoiy makon, ijtimoiy jarayonga tegishli bo‘lib, a’zosi bo‘lgan jamiyatning xususiyatlarini ifoda etadi. U bioijtimoiy mavjudot sifatida o‘z tarixiy davri va yashayotgan jamiyatning mohiyatini tashuvchisi hisoblanadi. Insonni o‘rab turgan hamda unga aloqador bo‘lgan barcha ijtimoiy hodisalar, amalga oshayotgan jarayonlar hamda ularning ijobiy va salbiy xususiyatlari ma’lum darajada insonning o‘tmishi, hozirgi kuni va kelajagini ifoda etadi. Bunday hodisalar va jarayonlar insonning salohiyatida aks etadi. Demak, e’tirof etish mumkinki, inson va unda namoyon bo‘layotgan salohiyatining muntazam ijtimoiylashib borishi qonuniy jarayon hisoblanadi. Aytib o‘tilgan jarayonlar insonning tobora ijtimoiylashib borishi, ya’ni o‘zini shaxs sifatida namoyon etishi uchun imkon yaratadi. U ijtimoiy shaxs sifatida konkret ijtimoiy davrning, u shakllangan jamiyatning tarixini yaratuvchisi hisoblanadi.

Inson ijtimoiy inson sifatida jamiyatning mohiyatini shunchaki aks ettiribgina qolmaydi. U jamiyatda amalga oshayotgan turli hodisalar, ijtimoiy jarayonlarga u yoki bu tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Bunday ta’sir etish jarayonida uning qobiliyati, o‘ziga xos xususiyatlari va qiziqishlari, ongliligi, faolligi, tashkilotchililigi kabi salohiyatini ifoda etuvchi xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

Insonning ijtimoiy mohiyati hamda salohiyatining shakllanishi va to‘planishida:

- megamuhit – ulkan ijtimoiy hayot;
- makromuhit – katta jamiyat;
- mikromuhit – insonni o‘rab turgan ijtimoiy muhit muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy muhitning sanab o‘tilgan shakllari inson salohiyatini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda realizatsiya qiluvchi ijtimoiy-tarixiy makon hisoblanadi. Inson salohiyatining ortib borishi unga jamiyatda o‘z faoliyati orqali salohiyatidan kelib chiqib, ijtimoiy taraqqiyot talablariga, chaqiriqlariga hamda ehtiyojlariga moslashib boradi. Demak, insonning ijtimoiylashib borishi jarayonida bunga aloqador bo‘lgan ikkita hodisani ko‘rsatib o‘tish zarur:

- insonning jamiyatda amalga oshayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy va boshqa sohadagi o‘zgarishlar va mazkur sohalarning taraqqiyotga moslashib borishi;
- jamiyat taraqqiyotida inson mobilligining (harakati, dinamikasi, moslashuvi, yashovchanligi va h.k.) ortib borishi.

Bu jarayonlarda inson salohiyatining ortib borishi mazkur salohiyatning realizatsiya qilishi hamda to‘g‘ri yo‘naltira olishi bilan bog‘liq.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Har bir yangi avlod o‘z hayotida avvalgi avlod tomonidan tashkil etilgan turmush tarzi, moddiy va ma’naviy boyliklarining yaratilganligi hamda ijtimoiy hayotning tashkillanganligiga duch keladi va ulardan foydalanadi. Ularga o‘z faoliyati asosida yondashadi. Mavjud ijtimoiy taraqqiyot natijalaridan foydalanadi. Bunday dialektik bog‘liqlik asosida insonning salohiyati yanada ortib boradi. Insonning salohiyati o‘zigacha mavjud bo‘lgan salohiyatdan foydalanish, jamiyatda avlodlar o‘rtasida bog‘liqlik yuzaga keladi. Demak, insonning zarur sharoitlar va imkoniyatlarga ko‘nikma hosil qila olish, yashovchanlik xususiyati vaqt o‘tishi bilan jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy hayot tartibiga hamda qonun-qoidalariga ham moslashib, mazkur qabul qilingan tartibda yashashning qoidalarini shakllanishiga olib keladi. Bu holat yakka insongina emas, balki ana shu insonlardan tashkil topgan jamiyatning va unda yashayotgan millatning ham salohiyati ortib borishiga olib keladi. Mazkur jarayon barcha jamiyatlarda va ularning tarixida ob’yektiv qonuniyat sifatida yuzaga chiqadi.

Qayd etilgan jarayon jamiyatda insonning ijtimoiy moslashuvi bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotida ulkan ahamiyatga ega. Aks holda, minglab aholi yoki jamiyatlar hayotida moslashuv jarayonida o‘z salohiyatini ishga sola olmay asta-sekin uning yemirilib ketish jarayonlari yuz bergan. Bu borada tarixda bir qancha misollar mavjud. Masalan, qadimda gullab yashnagan, lekin hozirgi kunda er yuzidan yo‘qolib ketgan qipchoqlar, yunga, pecheneglar, skiflar, burtaslar, Mochika, Mayya, hazar kabi xalqlar hayoti va madaniyati o‘ziga xos tarzda kechgan. Bu xalqlar ijtimoiy hayotining globallashuvi, migratsiya, urushlar, til bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar ularning turmush tarzini tubdan o‘zgartirib yubordi. Ular globallashuvda faol bo‘la olmaganliklari sababli bu jarayon ularning madaniyati, ma’naviyati va tarixini yutib yubordi [2.6-18]. Aytish mumkinki, yuqorida nomlari keltirilgan xalqlar yuzaga kelgan turli sharoitlar va chaqiriqlarga moslasha olmay, o‘z salohiyatini to‘g‘ri realizatsiya qila olmay qoldilar. Boshqalar bilan o‘zaro ijtimoiy aloqalarning kamayib borishi, salohiyati dinamikasining to‘xtab qolishi oqibatida salohiyatining ham yo‘qolib ketishiga olib keldi. Yer yuzidan yuzlab millatlarning yo‘qolib ketishiga ularning tarixida salohiyatining yo‘qolib ketishi sabab bo‘lgan, deb aytish mumkin. Bu masalaga yanada konkretroq yondashib, taniqli amerikalik arxeolog olim Kelbert Mayya sivilizatsiyasini tarix sahnasidan yo‘qolib, emirilib ketishiga olib kelgan sabablarni quyidagicha tushuntiradi: “Mening fikrimcha, Mayyaning yo‘qolib ketishi uning madaniyat qoidalardan chekinishi bilan bog‘liq bo‘lgan oddiy holat. Bunda madaniyat o‘ta tez rivojlanib, o‘z resurslarini juda tez ishlatib yuborib, madaniyat egalari atrof-muhitga o‘ta beg‘amlik bilan munosabatda bo‘ladilar. Boshqa qo‘shnilaridan ajralib qoladilar. Ularning tashkiliy imkoniyatlari ham tugadi. Iqtisodiy baza ishchi kuchidan samarali foydalanish qobiliyatini yo‘qotdi” [3.112].

Ko‘rinib turibdiki, inson salohiyatini saqlash va uni yuksaltirish sub’yektning ijtimoiy moslashuvchanligi bilan aloqador ekan. Ijtimoiy moslashuv insonning ma’lum tarixiy davrga xos bo‘lgan insonlararo va jamiyatlararo iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni, mavjud moddiy va madaniy-ma’naviy qadriyatlarni iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot asoslarini, asrlar davomida shakllanib kelgan milliy-ijtimoiy tajriba, an’analar va urf-odatlarni o‘zlashtirib borish jarayoni sifatida tavsiflanishi mumkin. Sanab o‘tilgan omillarga asoslangan holda inson va jamiyat taraqqiy etadi. Demak, salohiyatning muhim ijtimoiy xususiyati realizatsiya qilinishi jarayonida yangiliklarga, zaruriyatga, ijtimoiy talablar va buyurtmalarga moslasha olishdan iborat.

Ijtimoiy taraqqiyotda inson salohiyatining ortib borishi bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir jarayon insonning ijtimoiy mobilligi hisoblanadi. “Ijtimoiy mobillik” jamiyat a’zolari hamda jamiyatda shakllangan turli ijtimoiy guruhlarning o‘z maqsad va manfaatlaridan kelib chiqib ma’lum ijtimoiy pozitsiyani namoyon etishi, uni o‘zgartirishni ifoda etuvchi tushuncha. Ijtimoiy mobillik jamiyat a’zolarining salohiyatiga turlicha ta’sir etishi mumkin. Inson o‘zining jamiyatda ega bo‘lgan ijtimoiy mavqei, kasbi, bilimi, ko‘nikmalari va boshqa uning salohiyatiga ta’sir etuvchi jihatlaridan kelib chiqib ma’lum darajada ijtimoiy mobil bo‘lishi mumkin.

XX asrning taniqli sotsiologi Pitirim Sorokin “ijtimoiy mobillik” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan. Uning 1927 yilda AQShda nashr etilgan “ijtimoiy mobillik” nomli asari bu borada ulkan ahamiyatga ega bo‘ldi. Sorokin ijtimoiy mobillikni jamiyatga xos bo‘lgan xususiyat sifatida tavsiflaydi. U gorizontal va vertikal mobillikni e’tirof etadi. Mobillik jarayonida jamiyatda shakllangan ijtimoiy qadriyatlarga katta ahamiyat berib, ularning o‘rni muhimligini e’tirof etgan.

Uning fikricha: "…*inson faoliyatidan kelib chiqib har qanday ijtimoiy ob'yekt, qadriyat mobillik xususiyatiga ega bo'lishi mumkin"* [5.119].

Rossiyalik olima V.Chesnokova insonning ijtimoiy mobilligini uning kasbi, professional xususiyatlari, o'z vazifasini samarali bajarishi bilan bog'liq qobiliyati muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha: *"…insonning xususiyatini hamda salohiyatini jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlar orqali, insonning mazkur munosabatlardagi o'rni, pozitsiyasi orqali anglash mumkin*" [6.159,121].

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, ijtimoiy hayotda insonning moslashuvchanlik hamda ijtimoiy mobillik xususiyati inson salohiyatining:

ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lishini;

jamiyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liqligini;

ijtimoiy munosabatlarning inson salohiyatining ortishi yoki kamayib borishiga ta'sir ko'rsatishini;

mavjud ijtimoiy munosabatlar inson salohiyatini belgilab beruvchi determinant ekanligini;

inson salohiyati jamiyat taraqqiyotiga aloqador ravishda muntazam ortib borishini;

ijtimoiy taraqqiyotning sub'yektiv omili - insonning salohiyati doimiy dinamikada mavjudligi sababli muntazam ortib borishi kabi hodisalar inson salohiyatining nafaqat antropologik, balki ijtimoiy va madaniy antropologik hodisa ekanligi va shu bilan birga insongagina emas, jamiyat, millat, davlatga aloqador bo'lgan ijtimoiy mohiyatga ega ekanligini anglatadi.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotining asosida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari turadi. Ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementi - inson. Inson jamiyatning sub'yektiv omili sifatida uni taraqqiy ettiruvchi va shu bilan birga o'zi ham ijtimoiy taraqqiyot ta'sirida har tomonlama rivoj topib boruvchi ijtimoiy mavjudot.

Jamiyat va insonning muntazam va uzluksiz progressiv taraqqiy etib borishi - ob'yektiv qonuniyat. Lekin bu ob'yektiv qonuniyatni amalga oshuvi mexanizmining ikkinchi asosiy jihati - sub'yektiv omil - inson. Bu nuqtai nazardan ob'yektiv qonuniyatlarni inson tomonidan to'g'ri anglab etilishi jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi. Bunday holatda insonning egallab turgan ijtimoiy pozitsiyasi, jamiyatda faolligi, kreativ yondashuvi, tanqidiy fikrga egaligi kabi hodisalar katta ahamiyat kasb etadi va sub'yektiv omillarning ijtimoiy taraqqiyotning ob'yektiv qonuniyatlariga mos tarzda yuzaga chiqishini va bunday mutanosiblik inson va jamiyat rivojida katta rol o'ynashini anglatadi.

XULOSA

Inson salohiyati tahlil etilganda, albatta, uning yuzaga chiqarilgan yoki realizatsiya qilingan salohiyati bilan bir qatorda, insonda mavjud bo'lgan tug'ma yoki jamiyatda o'zlashtirilgan, lekin hali yuzaga chiqarib ulgurmagan yashirin salohiyatni farqlash zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson salohiyatining ikkala turi ham inson va jamiyat taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Bu borada asosiy vazifalardan biri insonning yashirin salohiyatini yuzaga chiqarish uchun jamiyatda etarli shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Ayniqsa, yoshlarning salohiyatini yuzaga chiqarish, uning yuzaga chiqmagan hali realizatsiya bo'lib ulgurmagan qismini to'g'ri yo'naltirish, jamiyatda o'ziga mos faoliyat turlarini shakllantirish va bu borada qayd etilgan salohiyat qismini qo'llash zarur. Prezidentimiz "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida yoshlarni - "yangi O'zbekiston bunyodkorlari" deb ta'riflagan. "Navbatdagi muhim vazifamiz - mana shunday farzandlarimiz orasidan yangi avlod Xorazmiy va Farg'oniylarini, Ulug'beklar va Navoiylarini tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat... Bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g'oyat muhim vazifa bo'lib qolmoqda" [1.253,254]. O'zbekistonda jamiyat va uning a'zolarining yashirin salohiyatini yuzaga chiqarish, saqlash va ishga solish borasida mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, innovatsiyalar va islohotlar natijasida ulkan imkoniyatlar yuzaga keldi. Mazkur yangicha imkoniyatlar va yaratilayotgan sharoitlar inson salohiyatini yuzaga chiqarish hamda yuksaltirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - B.440.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // https://president.uz/uz/lists/view/5774 (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan).
3. Исчезнувшие народы. - Москва: Наука, 1998. - С.6-18.
4. Gullbert P.T. Th Lost Civilization: the Storiy of Classic Maya. - N.Y. 1947. - P. 112.

5. Сорокин П.А. Социальная мобилность. - Москва: 2005. - С. 119.
6. Чеснокова В.Ф., Уильям Л. Питирим Сорокин: социальная стратификация и социальная мобильность. Человек. Сообщество. Управление. 2007. № 1. - С. 115;121 https://cyberleninka.ru/article/n/uilyam-l-uorner-pitirim-sorokin-sotsialnaya-stratifikatsiya-i-sotsialnaya-mobilnost/pdf (Murojaat etilgan sana: 04.04.2022.)
7. Toshpulatov I.I. Jamiyat taraqqiyotiga inson kapitalining ta'siri // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. Namangan, 2022. № 3. - B. 222-226.
8. Toshpulatov I. I. Positive effect of human capital on society development // American journal of social and humanitarian research. Vol.3. №.11. 2022. - P. 105-108.
9. Xolmirzaev X.N. Inson salohiyatini yuksaltirishda faoliyatning roli // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2022, [1/6] ISSN 2181-7324.
10. Xolmirzaev X.N. Inson potensiali ilmiy kategoriya sifatida // turkiy tilli xalqlar falsafasi, madaniyati: tarix, bugun va kelajak: xalqaro onlayn simpozium.-Toshkent, 2020.-B. 356-363.